

**UMUMIY OVQATLANISH TIZIMI FAOLIYATIDA RO‘Y BERGAN
O‘ZGARISHLAR VA ULARNING AHOLI TURMUSH TARZIGA TA’SIRI
(XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTON MISOLIDA)**

Nasirov Bunyod Uralovich

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan XIX asr oxiri- XX asr boshlarida umumiy ovqatlanish tizimi, an’analar, keyinchalik undagi o‘zgarishlar, sohaga xizmat ko‘rsatishning yangi turlarining kirib kelishi, rivojlanishi hamda bu o‘zgarishlarga mahalliy aholining munosabati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: an’ana, zavod, choyxona, restoran, bufet, umumiy ovqatlanish, xizmat ko‘rsatish, sovet hokimiyati, soha, aholi.

**THE IMPACT OF CHANGES IN THE PUBLIC CATERING SYSTEM IN THE DAILY
LIFE OF THE POPULATION**

(ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN IN THE LATE 19TH-EARLY 20TH CENTURIES)

Nasirov Bunyod Uralovich

Associate Professor, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Ph.D.

Abstract: In the article, the author describes the catering system, traditions, subsequent changes in it, the introduction and development of new types of service in the late 19th and early 20th centuries, as well as the reaction of the local population to these changes.

Key words: tradition, factory, tea house, restaurant, buffet, catering, service, Soviet power, industry, population.

**ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ НА ПО-
ВСЕДНЕВНУЮ ЖИЗНЬ НАСЕЛЕНИЯ
(НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА КОНЦА 19-НАЧАЛА 20 ВЕКОВ)**

Насиров Бунед Уралович

Доцент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана, PhD.

Аннотация: В статье автор описывает систему общественного питания, традиции, последующие изменения в ней, внедрение и развитие новых видов обслуживания в конце 19 - начале 20 веков, а также реакцию местного населения на эти изменения.

Ключевые слова: традиция, фабрика, чайхана, ресторан, буфет, общественное питание, сервис, Советская власть, промышленность, население.

Umumiy ovqatlanish tizimi aholining turmush darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu soha inson ehtiyojlarini qondirish va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratish kabi muhim hayotiy vazifalarni bajaradi.

Umuman “umumiy ovqatlanish” termini xonadondan tashqarida tayyorlanadigan ko‘p miqdorda taomlar ma’nosini ham anglatadi. G‘arbiy Yevropa, AQSh va Yaponiya kabi davlatlarning amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, umumiy ovqatlanish muassasalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar tez o‘zini oqlaydi. Xorijiy davlatlarda yarim avtomashlashgan yoki to‘liq avtomatlashgan oshxona va kafelar, shuningdek “fast-fud” kabi taomlar tayyorlaydigan kafeteriyalar, gril-barlar hamda “shved stoli” ko‘rinishidagi bufeti mavjud restoranlar va shu kabilar ovqatlanish maskanlari mavjud oshxonalar ancha mashhur [1].

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida inson omili barcha jabhalarda asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli qator xorijiy tadqiqotlarda O‘zbekiston aholisining hayot tarzi, ijtimoiy tarixini o‘rganishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlar bo‘yicha muhim ilmiy natijalar qo‘lga kiritilgan.

Biz ushbu maqolada umumiy ovqatlanish tizimi faoliyating XIX asr oxiri va XX asrdagi faoliyati masalasida fikr yuritmoqchimiz.

Rossiya imperiyasi o‘lkashunoslari B.Xanikov, P.I.Nebolsin va I.Gayerlar mahalliy aholining an’anaviy taomlari to‘g‘risida fikr bildirganlar. Jumladan, B.Xanikov Buxoro xonligi hududida yetishtirilgan meva va poliz mahsulotlari,



Bozordagi choyxona [5].

P.I.Nebolsin esa buxoroliklarning choy ichish odati (shirchoy va go'shtli taomlar) hamda M.Gayer Buxoroda turli qandolatchilik mahsulotlarini ishlab-chiqilishiga oid ma'lumotlarni qayd etishgan [2]. O'z o'rnida, buxoroliklarning ovqatlanish tartibi xususida to'xtalib, ularning eng sevimli taomi palov va turli shirinliklar, mevalar bilan to'ldirilgan dasturxon to'g'risida ma'lumot bergan. XIX asr oxiri XX asr boshiga oid amirning kundalik ovqatlanish tartibi va kambag'al xalq o'rtasidagi farqlar A.Fitrat va M.S.Andreev hamda O.D.Chexovichlarning asarlarida qayd etilgan [3]. Rossiya imperiyasi hukumatining ichimlik savdosi 1876 yildagi me'yor asosida belgilanishi ham alohida ko'rsatib o'tilgan. O'z o'rnida, vino do'konlarini tashkil etishda 500 nafargacha (ayol va erkak) bo'lishi, bu ko'rsatkich do'konlar miqdoriga ta'sir etishi e'tirof etiladi [4].

Shu o'rinda, mehmonxonalar, spirtli ichimliklar savdosi bilan shug'ullanuvchi do'konlarda rus va xorijiy o'tkir ichimliklarni (pivo, porter va "med" ichimliklari) sotishga ruxsat berilishi ma'lum qilingan [6].

XX asr 80-yillari oxirida Turkiston general-gubernatoriga Turkiston o'lkasi aksiz yig'implar boshqaruvchisi xat orqali murojaat qiladi [7]. Unda, Turkiston o'lkasi va Sirdaryo viloyati hududida rus aholi manzilgohlari mavjudligi bayon etilib, viloyat boshqaruvi va General gubernator Kengashi ularga ichimlik savdosiga oid faoliyat olib borishga ruxsat bermayotgani qayd etiladi. Ushbu hududlarda bo'za kabi ichimliklar savdosi rivojlangani, qo'l bola ichimliklar mavjudligi e'tirof etilib, bu ulgurji omborlarni ochishini taklif qiladi [8].

Bu borada, XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Toshkentning Chuqur qishloq degan joyida qozoqlar tomonidan bo'zaxonalar tashkil etilgani, unda maxsus hujralari bo'lganligi qayd etiladi [9]. Shuningdek, bu yerda bo'zalarning turlari bo'lib, mashshoyixlar xizmat ko'rsatgani e'tirof etiladi [10].

XIX asr 70-yillariga oid choyxona [12].

Shu davrdan, yoshlar orasida pivo ichimligini ichishi M.Behbudiyning "Padarkush" dramasida ham tasvirlangan [11].

Ta'kidlash joizki, ushbu yillarda joylarda spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavodlarni qurishga, omborlarni tashkil etishga hamda turli spirtli mahsulotlari bilan savdo qiluvchi ovqatlanish maskanlarini tashkil etishga e'tibor qaratilgan. Masalan, shu davrda Yangi Marg'ilon hududida 2 ta pivo, 1 ta aroq ishlab chiqarish zavodi, 1 tadan pivo va vino ombori, 1 ta rus uzum vinosi bilan savdo qiluvchi, 3 ta ichkilikga mo'ljallagan uy hamda 1 ta bufet tashkil etilgan bo'lsa, Qo'qonda 4 ta rus uzum vinosi bilan savdo qiluvchi, 1 ta bufet, Andijonda 5 ta rus uzum vinosi bilan savdo qiluvchi, 1 ichkilik sotuvchi maskan bo'lgan. Albatta, bu ko'rsatkichlar o'sha davrda, Samarqand hududida Samarqand, Jizzax va Katta-qo'rg'on hududlarida nisbatan oz bo'lsa-da mavjud bo'lgan [13]. Rus oziq-ovqat sanoatiga tegishli bufetlar va ichkilik bilan bog'liq maskanlar, shu davrda shahar kesimida rus aholisiga nisbatan nechtadan to'g'ri kelayotgani tahlil qilingan [14]. Biroq, mahalliy aholining turli oshxona va choyxonalarini rivojlantirish kabi masalalarga e'tibor qaratilmaydi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, Turkiston general gubernatorligi faoliyatida ichimlik bilan bog'liq maskanlarni rivojlanishi va muammolari masalasi tahlil qilib borilgan.

Shu davrdan, yangi ko'rinishdagi ovqatlanish, dam olish yoki ichkilik maskanlarida turli o'yinlar tashkil etib borilgan. Masalan, farg'ona viloyatidagi Yangi Marg'ilonda savdogar Vittega tegishli mehmonxona va 2 ta pivoxonada bilyard mavjud bo'lgan [15].

Arxiv fondining Toshkent shahri ruslar istiqomat qiladigan qismi Politsiya boshqarmasiga teshgishli yig'ma jildda 1904 yilga oid choyxonalar bo'yicha bir qator ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Sirdaryo viloyat harbiy gubernatori nomiga General Gubernator vazifasini bajrauvchi general leytenant Matsievskiy tomonidan murojaat yuboriladi. Unda Matsievskiy Janarboevaga tegishli choyxonaini yopishga yetarli asos topa olmayotganligini bayon qiladi [16]. Bu holat o'z-o'zidan Rossiya imperiyasi hududiy rahbarlari tomonidan mahalliy aholining kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgan choyxonalarni, turli bahonalar bilan yopilishi uchun yillar mobaynida politsiya vakillari kuzatuv va asos izlaganligini tasdiqlaydi.

XIX asr oxiriga kelib O'rta Osiyoda "Rivera", "Parij", "Shimol" (Samarqand), "Regina", "Buffa", "Anona" (Toshkent) kabi restoranlar faoliyat ko'rsatib, unlarda faqat yuqori tabaqa vakillariga xizmat ko'rsatilgan [17].

Toshkent shahar dumasida 1912 yil 18 yanvar kuni o'tkazilgan majlisda bir qator yevropa millatiga mansub va mahalliy kishilar tomonidan spirtli ichimliklar savdosi bilan shug'ullanuvchi bufet, issiq taomli pivoxonalar ochish bo'yicha arizalari o'rganilib chiqilgan [18].

XX asrning 30- yillarda qizil choyxonalar tashkil etilib, turli mavzularda ma'ruzalarni tashkil qilish, gazeta va jurnallarni o'qish ishlar keng ko'lamda olib borilgan. Ya'ni, sovet hokimiyati o'z g'oyalarini aholiga singdirishda ular uchun uzoq davrdan buyon an'anaviy bo'lgan choyxonalardan ustalik bilan foydalanishga



XX asrning 30-yillariga oid choyxona [19].

harakat qilgan. Qizil choyxonalarni jadal sur'atlar bilan o'sishi natijasida, 1937 yil respublikada ularni soni 3437 tani tashkil etgan. Shu o'rinda Buxoro viloyatida -700 ta bo'lgan. Buxoro viloyatidagi qizil choyxonalarda bir yilda 4176 ta ma'ruza va nutqlar o'qilgan. 1939 yil 1 yanvar holatida, O'zbekistondagi qizil choyxonalar soni 4073 tani tashkil etdi [20].



1940-1945 yillarda O'zbekistonda aholiga umumiy ovqatlanish tizimi bo'yicha xizmatlar ko'plab

idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshirildi. Jumladan, harbiy savdo, O‘zmaxsus savdo, bosh savdo, temir yo‘l bufet, daryo floti, matlubot uyushmasi va boshqa idoralar faoliyat olib bordi [21].

1956 yilni 1 martida kompartiya MQ hamda SSSR Vazirlar kengashining “Umumiy ovqatlanish muassasalari faoliyatini yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatdagi umumiy ovqatlanish muassasalari aholining kundalik turmushida muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida so‘z yuritilib, sohada oqsoqlik mavjudligi, ko‘plab o‘quv yurtlari, tashkilotlar, sanoat korxonalarida oshxonalar va bufetlar tashkil etilmagani, aholiga xizmat ko‘rsatish darajasi talabga javob bermasligi, umumiy ovqatlanish muassasalarining moddiy-texnik bazasi nochor ahvolda ekanligi kabi holatlarga joylardagi rahbarlar yetarli e‘tibor qaratishmayotganliklari qayd etildi [22].

Sovet davrida umumiy ovqatlanish tizimi tarkibida fabrika-oshxonalar, tayyorlov, oshxonalar, uy oshxonalar, restoranlar, choyxonalar, kafe, tamaddixonalar va bufetlar faoliyat yuritishar edi. Ularning bir qismi ish va o‘qish joylarida aholiga xizmat ko‘rsatib, taomlarni tayyorlash uchun harajatlarning ma‘lum qismi o‘sha tashkilotlar, muassasalar va o‘quv yurtlari zimmasida bo‘lar edi [23].

Umumiy ovqatlanishning ommaviy rivojlanishida tarmoqda sodir o‘zgarishlar misolida, yuqori mexanizatsiyalashgan muassasalarining tashkil etilishi, ularni tayyor va yarim mahsulotlar, konservali hamda muzlatilgan tayyor taomlar bilan ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etgan [24].

Keyingi davrlarda esa, umumiy ovqatlanish korxonalarining milliy bayramlarda mahalliy aholi ehtiyojlariga mos ravishda taom pishirganligi tanqid ostiga olindi. Jumladan, xalqimizning qadimiy tarixi bilan bog‘liq qadriyatlaridan biri Navro‘z bayrami kunlarida respublikadagi bir qancha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida un mahsulotidan tayyorlanadigan taomlar hamda qandolat mahsulotlarini tayyorlash va sotish ishlari amalga oshirilayotganligi O‘zbekiston Savdo vazirligi tomonidan qattiq tanqid qilindi. Buning amaliy isboti sifatida barcha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini kelgusida o‘z faoliyatlarida Navro‘z bayrami timsolini anglatuvchi taomlarni sotib olishi, tayyorlash hamda aholiga sotishi ta‘qiqlandi [25].

Xulosa tariqasida aytish joizki, aholi kundalik turmushida muhim ahamiyat kasb etgan umumiy ovqatlanish tizimida XIX asrning oxiri va XX asrning boshida transformatsion jarayonlar yuz berib, xizmat ko‘rsatishning yangi ko‘rinishlari kirib keldi. O‘z o‘rnida, yillar mobaynida qator holatlarda umumiy ovqatlanish muassasalarining aholi turar joyida, keyinchalik ish va o‘qish joylarida barpo etilishga keng e‘tibor qaratilib, xizmat ko‘rsatishning yangi ko‘rinishlari tashkil etildi. Biroq, xizmat ko‘rsatishning yangidan-yangi turlari kirib kelgan bo‘lsada, uzoq tarixga ega bo‘lgan choyxonalarga aholining ehtiyoji baland bo‘lganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Казакова Т.И. Зарубежный опыт работы организаций общественного питания.// Вестник НГИЭИ, 2014. –С.70-71.
- Курбонова М.Б. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларининг аънавий таомлари (XIX аср охири-XX аср боши). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. –Тошкент, 1994. – Б. 9.
- Курбонова М.Б. Кўрсатилган манба. – Б. 4-10.
- И-1-Р-фонд, 16-рўйхат, 1939- йиғма жилд, 2-13-варақлар.
- КиноФотоФоно ХМА, 0-98174-фонд, Скобелев 1900 йил.
- И-1-Р-фонд, 16-рўйхат, 1939- йиғма жилд, 14-варақ.
- И-1-Р-фонд, 16-рўйхат, 1939- йиғма жилд, 82-варақ.
- И-1-Р-фонд, 16-рўйхат, 1939- йиғма жилд, 82-варақ.
- Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. (Электрон ресурс: Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар (роман) - www.ziyouz.uz).
- Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. (Электрон ресурс: Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар (роман) - www.ziyouz.uz)
- Бехбудий М. Танланган асарлар. -Тошкент: Маънавият, 1999. -Б.45.
- Туркестанский альбом. Часть этнографическая 1871-1872. -С. 87
- И-1-Р-фонд, 16-рўйхат, 1939- йиғма жилд, 109-варақ.
- И-1-Р-фонд, 16-рўйхат, 1939- йиғма жилд, 109-варақ.
- ЎзМА, И-19-Р-фонд, 1-рўйхат, 5304- йиғма жилд, 2-3-варақлар.
- ЎзМА, И-462-Р-фонд, 1-рўйхат, 333-йиғма жилд, 16-варақ.
- Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2005. (Электрон шакли)
- ЎзМА, И-1-Р-фонд, 23-рўйхат, 45-йиғма жилд, 50-54-варақлар.
- Макс Пенсон фонди материалларидан.
- Бешимов Р. Победа культурной революции в кишлаках Узбекистана (1933-1941 года) По материалам Бухарской и Самаркандской областей. Дисс... канд. ист. наук –Ташкент. 1963. – С. 180.
- Ўз МА, Р.91-фонд, 11-рўйхат, 10-иш, рақамсиз варақ.
- Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам, т.4 М.: Политиздат, 1968. –559-564 с.
- Ильющенко Д.В. Культура общепита в 1970-х и 1980-х годах: достижения и проблемы.// Вестник МГУКИ. 2015. №2 (64). – С. 97.
- Ильющенко Д.В. Культура общепита в 1970-х и 1980-х годах: достижения и проблемы.// Вестник МГУКИ. 2015. №2 (64). – С. 98.
- Ўз МА, Р.91-фонд, 11-рўйхат, 2196-иш, 131-135-варақлар.